


I S T E ' M O L B O Z O R I

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Andijon viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo aylanmasi 7525,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga oshdi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Bo'z (14,6 % ga), Asaka (7,7 % ga), Oltinko'l (6,8 % ga), Marxamat (6,5 % ga), Xo'jaobod (6,2 % ga) tumanlarida va Andijon shahri (6,4 % ga) tashkil etdi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Buloqboshi (3,2 % ga), Izboskan (2,2 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (34,4 %), Shaxrixon (12,4 %), Asaka (10,5%), Qo'rg'ontepa (8,2 %) va Baliqchi (5,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| Shaharlar va tumanlar nomi | Ming so‘m | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|-------------------------------|----------------|--|
| Viloyat bo‘yicha: | 2445,2 | 104,1 |
| Bo'z t | 1 145,3 | 112,6 |
| Asaka t | 2 456,6 | 105,7 |
| Andijon sh | 5 952,2 | 104,8 |
| Oltinko'l t. | 1 478,0 | 104,8 |
| Marhamat t. | 1 290,4 | 104,7 |
| Honobod sh | 2 007,4 | 104,4 |
| Ho'jaobod t. | 2 100,7 | 104,2 |
| Andijon t | 1 501,8 | 103,8 |
| Pahtaobod t. | 1 489,5 | 103,8 |
| Qo'rg'ontepa t. | 2 906,5 | 103,8 |
| Shaxrixon t. | 3 198,1 | 103,7 |
| Ulug'nor t. | 1 006,1 | 103,4 |
| Jalaquduq t. | 1 074,6 | 102,5 |
| Baliqchi t | 2 115,0 | 101,5 |
| Buloqboshi t. | 1 089,5 | 101,5 |
| Izboskan t. | 1 042,7 | 100,2 |

Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,1 % ga oshib, 2445,2 ming so‘mni tashkil etdi (2018 yil 2098,4 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Andijon shahri (5952,2 ming so‘m), Shaxrixon (3198,1 ming so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida (2906,5 ming so‘m) kuzatildi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo va umumiy ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi



Mln.so‘m

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda


| Viloyat bo‘yicha: | Mln.so‘m | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|--------------------------|------------------|---|
| Viloyat bo‘yicha: | 977 253,7 | 136,4 |
| Bo'z t | 9 137,3 | 45,0 m. |
| Oltinko'l t. | 14 013,5 | 5,1 m. |
| Asaka t | 81 901,9 | 4,5 m. |
| Ulug'nor t. | 858,1 | 3,6 m. |
| Ho'jaobod t. | 4 707,3 | 184,2 |
| Qo'rg'ontepa t. | 8 941,8 | 150,9 |
| Buloqboshi t. | 5 567,2 | 146,2 |
| Honobod sh | 4 615,3 | 145,5 |
| Andijon sh | 747 886,4 | 129,5 |
| Jalaquduq t. | 5 874,4 | 124,1 |
| Andijon t | 31 442,1 | 114,9 |
| Marhamat t. | 6 899,1 | 114,1 |
| Baliqchi t | 12 941,9 | 109,2 |
| Pahtaobod t. | 9 406,2 | 88,3 |
| Shaxrixon t. | 26 261,0 | 77,6 |
| Izboskan t. | 6 800,2 | 38,9 |

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik (бизнес) sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi

hajmining 74,4 % ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 4095,1 mlrd.so'mini yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes)ning eng katta ulushi Ulug'nor - 98,5 %, Qo'rg'ontepa - 98,5 %, Xo'jaobod - 97,9 %, Izboskan - 97,2 % va Shaxrixon - 97,2 % tumanlarida. Eng past ulush Andijon shahar - 71,1 %, Asaka - 89,6 % va Bo'z tumanlarida - 88,7 % qayd etildi.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


2019 yil yanvar-avgust oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1726,8 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Xonobod shahar 21,3 %, Xo'jaobod 96,1% va Shaxrixon tumanlarida 98,7 % ga kamayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,0 % ga o'sdi va 1168,4 mlrd. so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 67,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)



2019 yil yanvar-avgust oylarida ulgurji savdoda yirik korxonalar savdo aylanmasi

|  | Mln. soʻmda | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|---|------------------|---|
| Viloyat boʻyicha: | 558 405,1 | 102,7 |
| Andijon t. | 114,8 | 167,5 |
| Qo'rg'ontepa t. | 52 293,1 | 122,8 |
| Andijon sh. | 492 935,8 | 109,1 |
| Pahtaobod t. | 152,2 | 76,0 |
| Shaxrixon t. | 7 834,8 | 68,4 |
| Baliqchi t. | 121,9 | 64,8 |
| Bo'z t. | 61,5 | 54,2 |
| Jalaquduq t. | 78,4 | 46,9 |
| Ulug'nor t. | 60,6 | 45,4 |
| Oltinko'l t. | 93,9 | 42,3 |
| Marhamat t. | 79,7 | 39,3 |
| Ho'jaobod t. | 96,1 | 25,9 |
| Izboskan t. | 185,2 | 4,0 |

2019 yil yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo aylanmasining oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati yuqori boʻlgan yirik korxonalar Andijon tumani (167,5 %), Qoʻrgontepa tumani (122,8 %) va Andijon shahar (109,1 %) ni tashkil etdi. Xonobod shahar, Asaka va Buloqbosh tumanlarida ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi yirik korxonalar faoliyati bolʻmagan.

2019 yil yanvar-avgust oylarida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan kichik tadbirkorlik (biznes) subʼektlarining savdo aylanmasidagi oʻsish surʼati, foizda



2019 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan mikrofirmalarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda




2019 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik korxonalar savdosi



2019 yil yanvar-avgust oylarida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi bo'yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon tuman (2746,5 mln.so'm) va Andijon shahar (2777,9 mln.so'm) larida mavjud bo'lib jami o'tgan yilga nisbatan 71,1 % ni tashkil etdi. Jamiga nisbatan ulushi 6,1 foizni tashkil qildi.

Andijon viloyat Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi” bo‘limi

Tel.: (71) 230 – 82 – 53